

Oferta (Shartnoma)

Ushbu oferta (shartnoma) "iPOST" (keyingi o'rinlarda "Biz" yoki "Kompaniya" deb yuritiladi) va Telegram bot orqali xizmatdan foydalanuvchi mijoz (keyingi o'rinlarda "Mijoz" deb yuritiladi) o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu oferta shartlariga rozilik bildirish orqali Mijoz ushbu shartnomani to'liq qabul qilgan deb hisoblanadi va quyidagi shartlar qonuniy kuchga ega bo'ladi.

1. Umumiy shartlar

- 1.1. Mijoz Telegram bot orqali ushbu shartlarga rozilik bildirishi bilan shartnoma qonuniy kuchga ega bo'lib, Mijozning yoshi qonuniy talablarga muvofiq deb hisoblanadi.
- 1.2. iPOST Xitoydan O'zbekistonga yuklarni olib kelish (kargo) xizmatlarini taqdim etadi.
- 1.3. Mijoz ushbu oferta shartlariga to'liq rioya qilishi shart.

2. Yuklarning gabaritlari va qo'shimcha to'lovlar

- 2.1. Agar Mijozning yuki gabarit (katta hajmli) yuklar toifasiga kirsa, iPOST qo'shimcha to'lov undirish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 2.2. Qo'shimcha to'lov miqdori yukning hajmi, og'irligi va boshqa omillarga qarab aniqlanadi va Mijozga oldindan xabar qilinadi.

3. Shikastlangan yuklar

- 3.1. Agar yuk Xitoydan iPOST omboriga yetib kelguncha shikastlangan bo'lsa, iPOST ushbu yukni O'zbekistonga jo'natmaydi.
- 3.2. Shikastlangan yuklar bo'yicha iPOST javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi, chunki shikastlanish iPOST omboriga yetib kelgunga qadar sodir bo'lgan.

4. Omborda qolib ketgan yuklar

- 4.1. O'zbekiston omborida 1 oydan ortiq vaqt qolib ketgan yuklar iPOST tomonidan musodara qilinadi.
- 4.2. Mijoz musodara qilingan yuklar bo'yicha hech qanday kompensatsiya talab qila olmaydi.
- 4.3. Mijozga yukni o'z vaqtida olib ketish mas'uliyati yuklatiladi.

5. Mijoz ma'lumotlari bo'lmagan yuklar

- 5.1. Agar Xitoydan kelgan yukda Mijozning aniq ma'lumotlari (masalan, ID raqami yoki Telegram botga trek raqam kiritmagan bo'lsa) bo'lmasa, iPOST ushbu yukni O'zbekistonga jo'natmaydi.
- 5.2. Mijoz yuk jo'natishdan oldin to'g'ri va to'liq ma'lumotlarni taqdim etishi shart.

6. Javobgarlik shartlari

- 6.1. iPOST tovar Xitoydagi ombor manzilimizga yetib kelganidan so'ng yuk uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.
- 6.2. Agar sotuvchi tovarni iPOSTning Xitoydagi omboriga jo'natmasa, iPOST hech qanday

javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi va barcha majburiyatlar iPOSTdan olib tashlanadi.

6.3. Mijoz tovarni iPOST omboriga yetkazilishini ta'minlash uchun sotuvchi bilan kelishishi shart.

7. Yuklarni yetkazib berish muddati (Avto fura)

7.1. Avto fura orqali olib kelinadigan yuklarning yetkazib berish muddati 10 kundan 45 kungacha bo'lishi mumkin.

7.2. Yetkazib berish muddati ob-havo sharoitlari, qor yog'ishi, yo'llarning yopilishi, chegara va bojxona nazoratidagi kechikishlar, texnik nosozliklar hamda iPOST nazoratidan tashqaridagi boshqa holatlar sababli chuzilishi mumkin.

7.3. Ushbu holatlar tufayli yuzaga kelgan kechikishlar uchun iPOST javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

8. Mijozning majburiyatlari

8.1. Mijoz yuk jo'natishda iPOST Xitoy manzilini onlayn platformalarga to'g'ri kiritilganligini tekshirishi shart. Tushunmagan joylari bo'yicha operatorlardan so'rashi mumkin.

8.2. Yukning holati, sifati va qadoqlanishi uchun javobgarlik sotuvchi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

8.3. Mijoz ushbu oferta shartlariga rioya qilmaslik oqibatida yuzaga keladigan har qanday zarar yoki yo'qotishlar uchun javobgardir.

9. Ta'qiqlangan tovarlar

9.1. Quyidagi tovarlar iPOST tomonidan qabul qilinmaydi va jo'natilmaydi:

- Tibbiyot anjomlari, dorilar, suyuqliklar (tish pastasi, linzalar va boshqalar).
- Kimyoviy portlovchilar, suyuqliklar, kukunlar.
- Yonuvchi narsalar (gugurt, zanjigalka va boshqalar).
- Harbiy qurollar va ularning jihozlari, pichoqlar, durbin, kamon.
- Ta'qiqlangan dronlar va boshqa shunga o'xshash mahsulotlar.
- Telefon ehtiyot qismlari (chexol va himoya oynasi bundan mustasno).
- Telefonlar, SIM kartali smart soatlar.
- Rangi o'zgaruvchan suyuqliklar.
- Gaz balon mahsulotlari (dezodorant, bo'yoq va boshqalar).
- 18+ mahsulotlar.
- Barcha iste'molga yaroqli oziq-ovqat mahsulotlari, ildizlar va boshqalar.
- Sirena va migalka chiroqlari.
- Qimmatbaho zeb-ziynat va rangli metall buyumlari.
- Tamaki mahsulotlari va alkogol.

9.2. Agar ta'qiqlangan tovarlar iPOSTning Xitoydagi omboriga yetib kelsa, iPOST ularni qabul qilmaydi.

9.3. Bunday hollarda, ta'qiqlangan tovarlar kuryer orqali sotuvchiga qaytariladi va Mijozga bu haqda Telegram bot orqali xabar beriladi.

9.4. Mijoz ta'qiqlangan tovarlarni jo'natishdan oldin ushbu ro'yxatni diqqat bilan o'rganishi va rioya qilishi shart.

10. Yakuniy qoidalar

10.1. Ushbu oferta shartlari Mijoz tomonidan Telegram bot orqali qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

10.2. iPOST oferta shartlarini bir tomonlama o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi, lekin bunday o'zgarishlar haqida Mijozni oldindan xabardor qiladi.

10.3. Ushbu oferta O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

Mijoz ushbu oferta shartlariga rozilik bildirishi bilan yuqoridagi barcha shartlarni to'liq qabul qilgan deb hisoblanadi.